

REFLEKSIYA VA ANALITIK FIKRLASH: MAKTAB TAJRIBASI

*Tleumuratova Nurjamal Maxsetovna**Qoraqalpog‘iston Respublikasi**Pedagogik mahorat markazi, o‘qituvchi***Annotatsiya**

Ushbu tezis umumiy o‘rta ta’limda o‘quvchilarning analitik fikrlashini rivojlantirishda refleksiya usullarining o‘rnini yoritadi. Maktab amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar tahlil, sabab–oqibatni aniqlash va asoslangan xulosa chiqarishda qiyinchilikka duch keladi. Muammoli savollar, keys-stadi, chek-list va rubrika asosidagi refleksiv topshiriqlar tarix hamda “Tarbiya” fanlarida samarali natija beradi. Natijada o‘quvchilarda mantiqiy izchillik, dalillash va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi.

Kalit so‘zlar: refleksiya, analitik fikrlash, muammoli ta’lim, keys-stadi, rubrika, o‘zini baholash, “Tarbiya”, tarix.

Аннотация

В тезисах раскрывается роль рефлексии в развитии аналитического мышления учащихся в условиях общего среднего образования. Школьная практика показывает, что обучающиеся испытывают трудности при анализе информации, выявлении причинно-следственных связей и формулировании аргументированных выводов. Использование проблемных вопросов, кейс-метода, чек-листов и рубрик самооценки на уроках истории и «Tarbiya/Vospitaniye» способствует осознанному рассуждению. В результате формируются навыки логического анализа, аргументации и самостоятельного принятия решений

Ключевые слова: рефлексия, аналитическое мышление, проблемное обучение, кейс-метод, рубрика, самооценка, история, воспитание.

Abstract

This thesis explains the role of reflection in developing students' analytical thinking in secondary education. School practice shows that learners often face difficulties in analyzing information, identifying cause–effect relationships, and producing reasoned conclusions. The use of problem-based questions, case studies, self-assessment checklists, and rubrics in History and “Tarbiya/Education” lessons supports conscious reasoning. As a result, students develop stronger analytical skills, argumentation abilities, and independent decision-making in learning tasks.

Keywords: reflection, analytical thinking, problem-based learning, case study, rubrics, self-assessment, history, education.

Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilardan nafaqat tayyor bilimni qabul qilish, balki uni tahlil qilish, izohlash va amaliy vaziyatlarda qo'llash talab etilmoqda. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'limning V–IX sinflarida o'quvchilar tarixiy voqealar mohiyatini tushuntirish, tarbiyaviy vaziyatlarni baholash va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish jarayonida tahliliy fikrlash ko'nikmalariga ehtiyoj sezadi.

Maktab tajribasida kuzatiladiki, ko'pchilik o'quvchilar savollarga "tayyor" javob qaytarishga moyil bo'lib, "nima uchun shunday bo'ldi?", "qanday oqibatga olib keldi?", "qanday dalil bilan isbotlash mumkin?" kabi savollarga javob berishda qiynaladi. Bu esa ta'lim jarayonida analitik fikrlashni ongli ravishda shakllantirishga xizmat qiladigan metodik mexanizmlarni izlashni talab qiladi [1].

Shu nuqtayi nazardan, refleksiv yondashuv o'quvchini o'z fikrlash jarayonini anglash, xatolarini ko'rish, dalillarni tekshirish hamda xulosani asoslashga yo'naltiradigan samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi [3].

Analitik fikrlash quyidagi asosiy komponentlarda ko'rinadi:

1. tahlil (fakt va axborotni ajratish, muhimni tanlash);
2. qiyoslash va tasniflash (o'xshash/farqli jihatlarni mezon asosida taqqoslash);
3. umumlashtirish va xulosa (mantiqiy yakun chiqarish);
4. argumentatsiya (fikrni dalil bilan isbotlash) [4].

Refleksiya o'quvchiga o'z fikrini "nazorat qilish" imkonini beradi. Masalan, dars oxirida qo'llanadigan "3 daqiqalik refleksiya":

- Men bugun nimani bildim?
- Qaysi fakt menga asos bo'ldi?
- Mening xulosam qanchalik ishonchli?
- Qanday savol menda qolib ketdi?

Kabi savollar orqali o'quvchining fikrlashi faollashadi va u "fikir yuritish madaniyati"ni bosqichma-bosqich shakllantiradi [5].

Maktab amaliyotida refleksiv-metodik yondashuv quyidagi vositalar orqali samarali ishlaydi:

1) Muammoli savollar

"O'qituvchi — savol beruvchi" emas, balki "fikrlashni boshqaruvchi" rolda bo'ladi:

- Nima uchun aynan shu sabab asosiy hisoblanadi?
- Agar sharoit o'zgarsa, natija ham o'zgaradimi?
- Qaysi dalil kuchliroq va nega? [6]

2) Keys-stadi (tarbiyaviy vaziyatlar)

O'quvchilar hayotiy vaziyatni tahlil qilib, yechimni mezonlar asosida tanlaydi. Bu usul tanqidiy fikrlash va argumentatsiyani bir vaqtda rivojlantiradi [6].

3) Rubrika va chek-list orqali baholash

Masalan, o‘quvchi o‘z ishini quyidagi mezon asosida baholaydi:

- sabab-oqibat bog‘landimi?
- dalil keltirildimi?
- xulosa aniqmi?
- fikr mantiqan izchilmi? [6]

Tarix (V–VII sinflar)

Topshiriq: “Sabab → Oqibat” tahlil jadvali

Maqsad: o‘quvchilarda tarixiy voqeani dalil asosida tahlil qilish, sabab–oqibat bog‘lanishini anglash va xulosani qisqa ifodalash ko‘nikmasini rivojlantirish [6].

Ish tartibi (5–7 daqiqa):

1. O‘qituvchi o‘quvchilarga qisqa matn/manba parchasini beradi (masalan, 8–12 jumlati matn).

2. O‘quvchilar jadvalni to‘ldiradi:

Sabablar (2–3 ta)	Oqibatlar (2–3 ta)	Dalil (matndan 1 misol)

3. Keyin o‘quvchilar juftlikda (yoki 3 kishilik guruhda) ishlaydi:

- sabablardan qaysi biri asosiy, qaysi biri ikkinchi darajali ekanini ajratadi;
- oqibatlar ijobiy/salbiy bo‘lishi mumkinligini muhokama qiladi.

Refleksiya (2 daqiqa):

O‘quvchilar quyidagi savolga 2–3 gap yozma javob beradi:
“Eng ishonchli sabab qaysi va nima uchun?”

Yordamchi formula:

- “Meningcha, asosiy sabab — ..., chunki matnda ... deyilgan.”
- “Bu sabab ... oqibatga olib kelgan.”

Natija: Ushbu topshiriq o‘quvchini “matnni qayta aytish”dan “matnni tahlil qilish”ga olib chiqadi. Ya’ni o‘quvchi fakti ajratadi, dalil keltiradi va mantiqiy xulosa chiqarishga o‘rganadi [6].

Xulosa qilib aytganda, refleksiya maktab ta’limida o‘quvchilarning analitik fikrlashini rivojlantiruvchi kuchli metodik omil hisoblanadi [5]. Refleksiv yondashuv orqali o‘quvchi o‘z fikrlash jarayonini anglaydi, xulosasini dalil bilan asoslashga o‘rganadi va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantiradi. Shu sababli tarix va “Tarbiya” fanlari misolida muammoli savollar, keys-stadi, rubrika hamda chek-listlardan foydalanish — o‘quvchilarning tahliliy kompetensiyalarini mustahkamlashning samarali yo‘li hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 23.09.2020 y. O‘RQ–637. <https://lex.uz>
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
3. Bruner J. The Process of Education. – Harvard University Press, 1960.
4. Немов Р.С. Психология. – М.: Владос, 2003.
5. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – М.: Педагогика, 1989.
6. Симаков В.А. Формирование аналитического мышления у старших подростков... // Вестник БГУ. – 2011. – №1.

